

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILINI SAMARALI O'RGATISH METODIKASI

Maxmudova Nargiza Soat qizi

Alfraganus Universiteti

Filologiya fakulteti ingliz filologiyasi yo'nalishi talabasi

nanizng@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ingliz tilini samarali o'rgatish metodikasi, interaktiv yondashuvlar, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, zamonaviy texnologiyalar va muammoli vaziyatlar orqali til o'rganishga oid samarali usullar yoritilgan. Maqola orqali o'quvchilarda mustahkam til ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ilg'or metodik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, metodika, samarali o'qitish, interaktiv usullar, kommunikativ kompetensiya, innovatsiya.

МЕТОДИКА ЭФФЕКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация: В данной статье освещаются методика эффективного обучения английскому языку в общеобразовательных учреждениях, интерактивные подходы, формирование коммуникативной компетенции, эффективные методы изучения языка с помощью современных технологий и проблемных ситуаций. В статье анализируются передовые методические подходы, способствующие формированию у учащихся прочных языковых навыков.

Ключевые слова: Английский язык, методика, эффективное обучение, интерактивные методы, коммуникативная компетентность, инновации.

METHODS OF EFFECTIVE ENGLISH LANGUAGE TEACHING IN GENERAL EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract: This article highlights the methodology of effective English language teaching in general education institutions, interactive approaches, the formation of communicative competence, effective methods of language learning using modern technologies and problematic situations. The article analyzes advanced methodological approaches that contribute to the formation of strong language skills among students.

Keywords: *English, methodology, effective teaching, interactive methods, communicative competence, innovation.*

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish, xususan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'rgatish bo'yicha muhim huquqiy va tashkiliy asoslar yaratilmoqda. Dunyo miqyosida ingliz tilining xalqaro aloqa, fan-texnika, iqtisod, axborot texnologiyalari va oliy ta'limdagi o'rne ortib borayotgani sababli uni chuqur va samarali o'rganish zaruriyati kundan-kunga oshmoqda.

Ingliz tilini erta yoshdan boshlab o'rgatish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezidentning 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5117-sonli farmoni ingliz tilini bosqichma-bosqich va sifatli o'rgatish uchun kompleks chora-tadbirlarni belgilab berdi. Ushbu hujjatda xalqaro standartlarga asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, o'qituvchilar malakasini oshirish, zamonaviy darsliklar va resurslar bilan ta'minlash, shuningdek, o'quvchilarning til bilish darajasini baholash tizimini takomillashtirish kabi masalalar asosiy yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tilgan [1].

Bundan tashqari, 2022-yil 28-fevralda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 86-sonli qarorda ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvni kuchaytirish, interaktiv metodlarni joriy etish, dars jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish bo'yicha aniq topshiriqlar belgilangan [2]. Ushbu qaror asosida o'quvchilarning amaliy til ko'nikmalarini rivojlantirish va ular orasida ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshirishga alohida urg'u berilgan.

Ushbu qarorlar asosida hozirgi vaqtda ta'lim jarayoniga kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar, AKT texnologiyalarining joriy etilishi kuzatilmoqda. Ammo amaliyotda bu yo'nalishlarda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, o'qituvchilarning metodik salohiyati yetarli emasligi, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va muloqotga kirishish qobiliyatining sustligi, ta'lim resurslarining ba'zi hollarda yetarli emasligi kabi omillar samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shunday ekan, mazkur maqolada ingliz tilini umumiy o'rta ta'lim muassasalarida samarali o'rgatishning metodik asoslari, zamonaviy yondashuvlar, ilg'or xorijiy tajribalar hamda O'zbekistondagi amaliy holat tahlil qilinadi. Shu orqali amaliyotga mos innovatsion o'qitish texnologiyalari va yondashuvlarini taklif qilishga harakat qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ingliz tilini samarali o'rgatish masalasi so'nggi yillarda lingvodidaktika va metodik tadqiqotlar doirasida dolzarb mavzulardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur

yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar, metodik qo'llanmalar va normativ-huquqiy hujjatlar ushbu sohaning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim manba vazifasini o'taydi.

Avvalo, xorijiy tillarni o'qitish metodikasining nazariy asoslarini tahlil qilishda H. D. Brownning "Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy" asari alohida e'tiborga loyiqdir. Muallif ushbu monografiyasida tilni o'rgatishda kognitiv, affektiv va psixomotor jihatlar uyg'unligini ta'minlashga urg'u beradi. U interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni asoslab, til o'rganishning motivatsion omillari va reflektiv o'rganish tamoyillariga e'tibor qaratadi [2].

Shuningdek, Richards va Rodgers tomonidan taqdim etilgan "Approaches and Methods in Language Teaching" nomli fundamental asar til o'rgatish metodlarining tarixiy taraqqiyoti hamda zamonaviy yondashuvlarini tizimli tahlil etadi. Ushbu asarda grammatika-oqish metodi, audio-lingvistik yondashuv, kommunikativ til o'rgatish usuli (CLT), topshiriqqa asoslangan yondashuv (TBLT) va CLIL kabi konsepsiyalar nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Bu metodlar orasidagi farqlar, ularning samaradorlik darajasi va muayyan o'quv muhitida qo'llanish shart-sharoitlari mualliflar tomonidan chuqur tahlil etiladi [3].

O'zbekiston ta'lim tizimi kontekstida esa Shodmonov A. Sh. tomonidan yozilgan "Zamonaviy dars metodikasi" nomli ilmiy-uslubiy qo'llanma muhim o'rin tutadi. Asarda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida qo'llanishi mumkin bo'lgan interaktiv metodlar, jumladan "Aqliy hujum", "Insert", "Klaster" va "Fishbone" metodlarining amaliy imkoniyatlari yoritilgan. Mazkur qo'llanma o'zbek maktablarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishdagi metodik asos bo'lib xizmat qiladi [4].

Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining til o'rgatishdagi o'рни bo'yicha M. Warschauerning "Learning in the Cloud" asari dolzarbligi bilan ajralib turadi. Muallif raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rag'batlantirish, interaktiv o'quv resurslari yordamida til ko'nikmalarini rivojlantirish usullarini tahlil qiladi. Asarda mobil ilovalar, onlayn platformalar va "cloud-based" texnologiyalarning til o'rgatishdagi pedagogik salohiyati ilmiy asosda ko'rsatib beriladi [5].

Ingliz tilini samarali o'qitish metodikasini davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PF-5117-sonli farmonida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'rgatish tizimini takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar belgilangan. Farmonda o'quv dasturlarini yangilash, xalqaro baholash mezonlari (CEFR)ni joriy etish, darslik va resurslarni takomillashtirish, shuningdek, pedagog kadrlar malakasini oshirishga doir vazifalar aks etgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-fevraldagi 86-sonli qarori umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish

sifatini oshirish bo'yicha aniq mexanizmlarni belgilaydi. Ushbu hujjatda AKT vositalaridan samarali foydalanish, metodik qo'llanmalarni yangilash, o'quvchilar til ko'nikmalarini mustahkamlashga yo'naltirilgan metodik ishlanmalar yaratish bo'yicha vazifalar belgilangan.

Umuman olganda, ko'rib chiqilgan adabiyotlar ingliz tilini samarali o'rgatishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur yoritib beradi. Nazariy adabiyotlar metodik qarashlarni asoslab bersa, amaliy-uslubiy va normativ manbalar esa ushbu qarashlarning ta'lim amaliyotiga tatbiq etilishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tilning qanchalik keng tarmoqda tarqalganligi uning nufuzini va o'rganish dolzarbligini oshiradi. Xorijiy tillarni bilish chet el mamlakatlari bilan fikr almashish va o'z sohasi doirasida tez rivojlanish imkonini beradi. Shu munosabat bilan O'zbekistonda chet tillarini o'rgatish maktabgacha ta'lim va boshlang'ich sinflardayoq yo'lga qo'yilgan. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o'rganish va o'rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchi-talabaning to'plagan til tajribasi meyorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarni samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Chet tillarni o'rganish va o'rgatish ko'p jihatdan chet til o'qitish metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo'llanilishiga bog'liqdir.

Metodikaning predmeti – chet til predmeti orqali ta'lim-tarbiya berish jarayoni va usullari, chet til o'rgatish ilmi, muallim va o'quvchi faoliyatini o'rganish metodikaning predmeti sanaladi. Metodikaning asosiy tushunchalari – metod, usul, prinsip. Didaktika- nimani o'rgatamiz? O'qitish mazmuni hisoblanadi. Metodika – qanday o'rgatamiz? Ta'lim usullari va metodlari demakdir. Metod – metodika tushunchasi grek-lotinda “metodos-metodus” so'zidan olingan bo'lib, ma'lum maqsadga eltuvchi yo'llar, usul ma'nosini anglatadi. Turli adabiyotlarda atamaning tor va keng ma'nosini uchratish mumkin. “Metodika” atamasi tor ma'noda ta'limning konkret dars jarayoni bilan bog'liq tushunchani anglatadi. Mashg'ulotlarni rejalashtirish va o'quv materiallarini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalarni qamrab oluvchi boshqariladigan dars jarayoni sifatida talqin etiladi. “Metod” atamasi keng ma'noda o'quv materialini tanlash, tabaqalash va taqsimlanishni nazarda tutadi. Germaniya Federativ Respublikasida 60-yillardan boshlab “didaktika” va “metodika” tor ma'noda qo'llanilib kelinmoqda. Shunga ko'ra didaktika ta'lim mazmuni nima o'rgatiladi? Metodika esa ta'lim usullari qanday o'rgatiladi? Masalalari bilan shug'ullanadi. Chet tillarini o'rganish faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o'zga madaniyat talimiy boyliklari va qadriyatlari bilan tanishish va ularni o'z madaniy hayotiga tadbiq qilish orqali kishi shaxsining shakllanish jarayoni hisoblanadi. Yevropada chet tillarni

o'rganish uzoq vaqt yuqori darajadagi ta'lim olishda imtiyoz sanaladi va jamoat maktablarida imtiyozga ega bo'lgan kishilarni tarbiyalash deb qaraladi. Chet til o'qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortiq tarixga ega. Bu davr ichida chet til o'qitish metodikasiga turlicha munosabatlar bildirilganini kuzatish mumkin. Bunday qarashlardan biri akademik L.V.Shcherbaga mansub hisoblanadi.

Uning fikricha, har qanday fanni o'qitish metodikasi fan bo'lishiga qaramasdan, nazariy fan hisoblanmaydi. U amaliy masalalarni hal qiladi. Jumladan, chet til o'qitish metodikasi ham faqat psixologiya dalillariga tayanmaydi, balki umumiy va xususiy tilshunoslik tadqiqotlariga asoslanadi. Agar tilshunoslik til hodisalarining kelib chiqishi va harakatlanish qonuniyatlari bilan shug'ullansa, metodika bu qonuniyatlarga asoslanib zarur til hodisasidan amalda foydalanish uchun nima qilish kerak degan savolga javob beradi.

Chet til o'qitish metodi – deyilganda chet til o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi "ta'lim usullari yig'indisi" va "ta'limning yo'nalishi" ma'nolarida qo'llanadi. Birinchisi ta'lim nazariyasida jarayon metodlar ma'nosida ishlatilsa, ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, chet til o'qitishning tarjima metodi, tog'ri metod, ongli- qiyosiy metod, an'anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi.

Kommunikativ didaktika tinglab tushunish materiali sifatida tabiiy nutqiy vaziyatdan foydalanishni birinchi o'ringa qo'ydi, ya'ni, transportdagi, vokzaldagi e'lonlar, radio va televideniyedagi reklamalar, telefondagi suhbatlar va shu kabilarni misol keltirishiiz mumkin. Axborotni tinglab tushunish qabul qilish bo'yicha qo'yilgan maqsadlar o'zgardi. Tinglaganini hikoya qilish va nazorat qilish ham boshqacha tus oldi. Mazkur metod maqsaddan kelib chiqqan holda tinglovchiga tinlab tushunishning quyidagi turlarini ajratib berdi:

Keng ma'noda matnning ba'zi bir detallariga ahamiyat bermay, uning asosiy mazmunini tushunish;

Aniq informatsiya muhim bo'lganda, masalan, ma'lum bir joy uchun ob- havoning zarurligi, poyezdning kelishi-ketishi tog'risidagi e'lon va boshqalar shu metod jumlasidandir. [6]

XULOSA

Xulosa, o'rnida shuni aytishim mumkinki chet tillarini o'zlashtirish bugunning muhim va ajralmas qismiga aylanib borar ekan, uni o'zlashtirish uchun yangidan yangi metodlar ham ishlab chiqarilaveradi. Har bir inson miyyasi individual bo'lib, ularning chet tillarini o'zlashtira olish usllari va qobiliyatlari ham turlicha. Tinglash, gapirish, eshitish va yozish bu barcha metodlar uchun ajralmas bir qism bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PF–5117-sonli “Xorijiy tillarni o'rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni. – T.: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-fevraldagi 86-sonli “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori. – T.: www.lex.uz, 2022
3. Brown, H. D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. – 3rd ed. – New York: Pearson Education, 2007. – 566 p.
4. Richards, J. C., Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 284 p.
5. Shodmonov, A. Sh. Zamonaviy dars metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 215 b.
6. Warschauer, M. Learning in the Cloud: How (and Why) to Transform Schools with Digital Media. – New York: Teachers College Press, 2011. – 180 p.
1. Shaxnoza A. PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN //Journal of Modern Educational Achievements. – 2022. – T. 1. – C. 33-38.
2. Shaxnoza A. PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN //Journal of Modern Educational Achievements. – 2022. – T. 1. – C. 33-38.
3. Shaxnoza, Artikova. "PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN." Journal of Modern Educational Achievements 1 (2022): 33-38.
4. Shaxnoza, Artikova. "PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN." Journal of Modern Educational Achievements 1 (2022): 33-38.
5. Artikova S. M. О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – С. 79-83.
6. Artikova S. M. О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – С. 79-83.
7. Artikova, S. M. (2020). О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Theoretical & Applied Science, (5), 79-83.
8. Artikova, S. M. (2020). О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Theoretical & Applied Science, (5), 79-83.